



GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI TARIXI VA ISTIQBOLINING MAHALLIY HAMDA XORIJIY TADIQOTLARDA O'RGANILISHI

Dostonjon Tojiyev

O'zR FA ShI tayanch doktoranti

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

ORCID: 0009-0009-1614-802X

Axrorjon Davkarov

Alfraganus o'qituvchisi

"Xalqaro munosabatlar va tarix" yo'nalishi kafedrası

ORCID: 0009-0007-7812-7190

Annotatsiya. *Ushbu maqola XXI asrning dastlabki choragi davomida shakllangan va rivojlangan hamda tobora yirik, xalqaro tashkilotga aylanib borayotgan Turkiy Davlatlar Tashkilotining rivoji, davlat rahbarlarining sammitlararo uchrashuvlari natijalari, ilmiy-madaniy doiralardagi hamkorligi masalalari shu soha bo'yicha ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilarning asarlari asosida shakllantirilgan. Globallashuv sharoitida Turkiy Davlatlar Tashkilotining tarixi va kelajak istiqbolini barpo qilishda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini batafsil o'rganish, solishtirish, qiyosiy va tahliliy yondashuvlar asosida o'rganish bugunning dolzarb mavzularidan biri sifatida ahamiyatga ega.*

Maqolada asosan davlat rahbarlari, hamda bir nechta tadqiqotchilarning ishlariga o'rin berilgan. Said-Abdulaziz Yusupovning "Zamonaviy Turkiya: ko'hna tarix va buyuk kelajak" nomli ommabop risolasi, Qahramon Rajabov va Bahodir Qandovning "Jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar" nomli jahon mamlakatlari tarixi va geografiyasi hamda siyosiy boshqaruviga oid kitobi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi, Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdog'anning "Dunyo yanada odil bo'lishi mumkin" nomli kitobi, Yelena Parubochayaning "Turkiy davlatlar sammitlari (1992-2001 – yillar): hamkorlik uchun real platformami?" va "Zamonaviy bosqichdagi Turkiy dunyo integratsiyasi" maqolalari, R. Veyselning "Turkiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va ta'lim tizimiga ta'siri", F. Yusupovning "Turkiy Davlatlar Tashkilotining rivojlanish tarixi va xalqaro huquqdagi o'rni" nomli ilmiy maqolasi, M. Mustofayevning "Turkiy davlatlar tashkiloti: yangi global yondashuvlar va mintaqaviy muammolar", A. Mirkomilovning "Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikning yangi imkoniyatlari" maqolalari va "Turkiy Kengash: Naxichevan kelishuviga 10 yil" nomli maxsus yubiley uchun chop etilgan kitob to'plamidagi O'zbekiston Prezidentining "Integratsiya va hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar" ilmiy maqolasi shular jumlasidandir.



STUDY OF THE HISTORY AND PROSPECTS IN LOCAL AND FOREIGN STUDIES OF THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES UNDER GLOBALIZATION

UzR AC IOS foundation doctoral student **Dostonjon Tojiev**
Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni

ORCID: 0009-0009-1614-802X

Teacher of Alfraganus **Akhrorjon Davkarov**
Department of "International relations and history"

ORCID: 0009-0007-7812-7190

Abstract. *This article was formed and developed during the first quarter of the 21st century, and the development of the Organization of Turkic States, which is increasingly becoming a large international organization, the results of the inter-summit meetings of the heads of state, and the issues of cooperation in the scientific and cultural spheres, was formed based on the works of researchers who are conducting scientific work in this field. A detailed study of the works of local and foreign researchers, comparison, comparative and analytical approaches is important as one of today's topical issues in establishing the history and future perspective of the Organization of Turkic States in the context of globalization.*

The article mainly focuses on the works of state leaders and several researchers. Said-Abdulaziz Yusupov's popular treatise "Modern Turkey: Ancient History and Great Future", Kahramon Rajabov and Bakhadir Kandov's book on the history and geography of world countries and political governance, entitled "World Countries and International Organizations", President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev's book "New Uzbekistan Strategy", Turkiye President Recep Tayyip Erdogan's book "The World Can Be Fairer", Yelena Parubochaya's "Summits of Turkic States (1992-2001): A Real Platform for Cooperation?" and the articles "Integration of the Turkic world at the modern stage", R. Veizel "The influence of Turkey on the culture and educational system of Central Asian states", F. Yusupova's scientific article "The history of the development of the Organization of Turkic States and its role in international law", M. Mustofayev's "Organization of Turkic States: new global approaches and regional problems", A. Mirkomilov's among these are the articles "New opportunities for cultural and humanitarian cooperation within the Organization of Turkic States" and the scientific article "New opportunities for integration and cooperation" of the President of Uzbekistan in the book collection published for the special anniversary "Turkey Council: 10 years of the Nakhichevan Agreement".

KIRISH.

XXI asrning dastlabki choragi yuksak texnik-texnologik rivojlanish, sun'iy intellektning tobora ommalashuvi, resurslar sarfini kamaytirib yangi imkoniyat manbalarini yaratish ustidagi izlanishlar kabi quvonarli hodisalar hamda inson



zaifligining yana bir belgisi bo'lgan pandemiya, yadroviy xavfni yaqinlashtirgan urushlar bilan tarixga muhrlandi. Insoniyat sivilizatsiyasi globallashtirish hamda integratsiyalashuv jarayonlari faollashgan davrga mutlaq qadam qo'yib ulgurdi. Barchasi umumiylikda davlatlar uchun birgalikda rivojlanishga harakat qilish, til va madaniyat yaqinligi asnosida mustahkam hamkorlik tashkilotlarini shakllantirishni birinchi o'ringa chiqardi. Davlatlar o'rtasidagi chegaralarning shaffoflashishi, xalqaro aloqalar tizimining rivoj topa borishi, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatlar va alohida davlatlarga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq jarayonlarning kuchayishi ham yuqoridagi fikrlarga dalildir. Tarixan kuchli, o'zaro aloqalar, tili, dini, madaniyatidagi yaqinlik sababidan Turkiy dunyo asrning ilk choragida yana bir karra birlashishga erishdi. Ushbu birlashish, o'zaro integratsiya hamon yuqori darajada o'sishga intilishi turkiy mamlakatlarning kelajak uchun jamg'arayotgan yirik kapitali deyish, mubolag'a bo'lmaydi. Shunga asosan Tashkilot faoliyatiga doir ba'zi tadqiqotlarni ko'rib o'tish lozim.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA.

Said-Abdulaziz Yusupovning "Zamonaviy Turkiya: ko'hna tarix va buyuk kelajak" (Юсупов, С.А. 2018) nomli ommabop risolasi ham turkiy dunyoni chuqurroq anglashga o'ziga xos tarzda yordam beradi. Ushbu kitobda asosiy urg'u qarindosh turklarning hududi, tarixi, davlatchilik an'analari, huquqiy tizimi, qonunchiligi, ichki va tashqi siyosati, OAVning mamlakat rivojida roli bilan bog'liq jarayonlar yangicha yondashuv asosida, bosqichlarga bo'lib bayon qilingan.

Muallif kirish qismida ta'kidlaganidek: "Hozirgi Turkiya Respublikasi bu fenomen. U G'arbni Sharq bilan, Shimolni esa Janub bilan bog'lab turuvchi o'ziga xos ko'prikdir. Uning xalqaro jamiyatdagi o'rni beqiyos bo'lib, O'rta Yer dengizi, Sharqiy va Janubiy Yevropa hududlarida katta ta'sir doirasiga ega" (Юсупов, С.А. 2018: 5). Kitobning umumiy holatidan kelib chiqib shunday xulosalash mumkin-ki, asosiy urg'u Turkiyaning mintaqaviy va xalqaro darajadagi faoliyatiga qaratilgan va uning Markaziy Osiyo Respublikalari bilan ilmiy-madaniy, savdo-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy aloqalari o'zaro diplomatik munosabatlar orqali ochib berilgan.

Kitobning VIII bobi – "Eng yangi davrda Turkiya. Islom dunyosi o'rtasidagi munosabatlar: tarix va kelajak", deya nomlangan hamda bu bobda Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama olib borilayotgan ijobiy aloqalar, diplomatik munosabatlar keltirib o'tilgan (Юсупов, С.А. 2018: 85-96). Turkiy birlikka erishishdagi o'zaro hamkorlik xususida tadqiqotchilarning mulohazalari, taxminlari bayon etilgan. Bundan tashqari, kitobning XII bobi – "O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishning yangi istiqbollari", nomi bilan qayd etilib, 2016-2018 – yillar oralig'idagi Turkiya Prezidenti Rejeb Tayyib Erdo'g'anning Toshkentga rasmiy tashriflari va 2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Anqaraga uyushtirgan rasmiy davlat tashriflari hamda ikki o'rtada hamkorlik rivoji uchun imzolangan qator hujjatlar haqida ma'lumotlar berilgan (Юсупов, С.А. 2018: 125-134). Aynan Turkiya rahbarining 2018-yilgi tashrifida O'zbekiston uchun tarixiy qadam –



Turkiy Kengashda ishtirok etishga taklif etilishini unutmashlik lozim. 2018-yilning 3-sentabrida Qirg'iziston Respublikasining Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitida O'zbekiston kuzatuvchi davlat sifatida qatnashdi. Shavkat Mirziyoyev ham "Turkiy Kengash doirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz" nomli ma'ruza bilan ishtirok etdi (Мирзиёев, Ш.М. 2019: 192-209). 2019-yilning 15-oktabr kuni esa Turkiy Kengash tug'ilgan diyori - Ozarbayjonda bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston tashkilotning rasmiy a'zosiga aylandi. Boku shahri mezbonlik qilgan tashkilotning 7-sammitida O'zbekiston Respublikasining rasmiy va to'laqonli a'zoga aylanishi munosabati bilan Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston - Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining teng huquqli a'zosi" (Мирзиёев, Ш.М. 2020: 258-263) nomli nutqini so'zlashdi. Bu jarayonlar Said-Abdulaziz Yusupovning kitobi nashr etilganidan keyin sodir bo'lgan jarayonlar hisoblanadi.

Qahramon Rajabov va Bahodir Qandovning 2015-yilda nashr etilgan "Jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar" (Ражабов, Қ., Қандов, Б. 2015) nomli jahon mamlakatlari tarixi va geografiyasi hamda siyosiy boshqaruviga oid, shuningdek, xalqaro tashkilotlar faoliyati qator jadvallar va statistik ma'lumotlar bilan boyitilgan kitobi ham yirik ma'lumotnoma hisoblanadi. Ushbu kitobda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatgan davlatlar, BMTga a'zo bo'lgan mustaqil davlatlar, XX asr 90-yillarida SSSR va Yugoslaviya kabi ulkan ittifoqdosh davlatlarning parchalanishi sabab vujudga kelgan o'nlab mustaqil respublikalar, shu qatorida, mustaqil turkiy davlatlar hamda turli davlatlar tarkibidagi turkiy respublika, avtonom hudud va viloyatlar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Jumladan, kitobdagi XII jadval - "Jahondagi mustaqil turkiy davlatlar hamda turkiy davlatlar tarkibidagi turkiy respublikalar va avtonom hududlar" deya nomlanib unda Turkiy Davlatlar Tashkilotining asosini tashkil qilgan Markaziy Osiyo (Tojikistondan tashqari) davlatlari, Turkiya va Ozarbayjon haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Xitoy, Eron, Afg'oniston, Tojikiston, Moldova kabi davlatlar tarkibidagi turkiy respublika, avtonom hudud va viloyatlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan (Ражабов, Қ., Қандов, Б. 2015: 41-44). Kitobning XX jadvali - "Turkiy Kengash" deb nomlangan hamda tashkilotning 2015-yilgacha bo'lgan ma'lumotlari jamlangan (Ражабов, Қ., Қандов, Б. 2015: 61).

Kitobdagi ma'lumotlar anchayin salmoqli biroq keyingi 10 yilda tashkilot faoliyatida qator yirik va tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. 2019-yilda O'zbekiston Kengashining to'laqonli a'zosiga aylandi. Turkmaniston va Vengriya kuzatuvchi davlat maqomida tashkilot sammitlarida faol ishtirok etishmoqda. 2021-yilda tashkilot rasman Turkiy Davlatlar Tashkiloti nomini oldi hamda ilk sammit Samarqandda 2022-yilda bo'lib o'tdi. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining birlashayotgan Turkiy dunyoga bo'lgan qarashlari anchayin o'zgargan.



E'tibor qilish lozim bo'lgan jihatlardan yana biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" (Мирзиёев, Ш.М. 2021) kitobidir. Kitobda asosiy e'tibor Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish ustida olib borilayotgan harakatlar, amalga oshirilgan va oshirilishi reja qilingan tub o'zgarish hamda islohotlar, milliy taraqqiyot istiqbollari xususiga qaratilgan. Jumladan, kitobning "Xavfsizlik va tashqi siyosat" bo'limidagi "BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik" (Мирзиёев, Ш.М. 2021: 354-357) qismida Turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim jihati ekanligi urg'ulangan. O'zbekiston va Turkiy Kengash mamlakatlarini tarixiy yaqinlik, an'anaviy do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari jiddiy bog'lab turishi ta'kidlangan. O'zbekiston Prezidenti Turkiy Kengash (hozirda Turkiy Davlatlar Tashkiloti)ni savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, turizm, madaniy-gumanitar hamkorliklar kabi dolzarb yo'nalishlarda amaliy sherikchilikni rivojlantirish maqsadidagi samarali mintaqaviy tuzilma sifatida yuksak baholaydi.

Turkiy davlatlarning bir tashkilot ostida birlashuviga o'zining faol siyosati bilan hissa qo'shayotgan prezidentlardan biri bo'lgan Rejep Tayyip Erdog'anning "Daha adil bir dunya mumkin" (Erdoğan, R.T. 2021) kitobida ham qisqacha bo'lsa-da tashkilotga urg'u berib o'tilgan. Kitobning o'zbek jamiyati va kitobxonlari uchun ahamiyati esa uning 2022-yilda - O'zbekiston va Turkiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'tnatilganining 30 yilligi munosabati bilan chop etilganidir. "Dunyo yanada odil bo'lishi mumkin" (Эрдоған, Р.Т. 2022) kitobida asosiy masala BMTning islohoti haqida bo'lsa-da Turkiya uchun kelajak rejalarida Markaziy Osiyo, to'g'rirog'i Turkiy dunyo davlatlarining ahamiyati ham e'tiborga olingan. Turkiya Prezidenti aytganidek "Butun dunyoda samarasiz ishlayotgan xalqaro tashkilotlar talaygina. Bu tashkilotlar hech qachon odil bo'lmadi. Doim xalqaro gegemoniya va kuchli davlatlarning xohish-irodasiga xizmat qildi" (Эрдоған, Р.Т. 2022: 46). Bu esa xalqaro tashkilotlarga parallel tarzda yangi tashkilotlarning vujudga kelishiga turtki bo'lmoqda. Yirik tashkilotlarning samarasiz harakati sabab mintaqaviy tashkilotlarning paydo bo'lish ehtimoli ortib bormoqda. Turkiy Davlatlar Tashkiloti esa samarasiz tashkilotlardan biriga aylanmaslik uchun jiddiy harakat qilmoqda.

Rus tadqiqotchilarining ham sohani o'rganishga doir qator tadqiqotlari mavjud. Shularda biri Volgograd davlat universiteti tadqiqotchisi Yelena Parubochayadir. Tadqiqotchining 2011-yili "Xalqaro aloqalar" jurnalida chop etilgan "Turkiy davlatlar sammitlari (1992-2001 - yillar): hamkorlik uchun real platformami?" (Парубочая, Е.Ф. 2011: 113-120) nomli ilmiy maqolasi o'zaro munosabatlar ta'siriga doir dolzarb mavzuni o'rganishga bag'ishlangan edi. Turkiy tilli davlatlarning sammitlari doirasida sobiq SSSR davlatlari va Turkiyaning faol hamkorligining ilk davridagi (1992-2001) qo'shma yig'ilishlar chog'ida qabul qilingan qarorlar, Anqaraning turkiy davlatlar integratsiyasidagi roli, ayrim turkiy davlatlarning loqayd munosabatini ochiq ifodalashga harakat qilingan.



Uning 2016-yilda "Gramota" jurnalida nashr etilgan "Zamonaviy bosqichdagi Turkiy dunyo integratsiyasi" (Парубочая, Е.Ф. 2016: 147-151) maqolasi ham ahamiyatga molik bo'lib, bundan oldingi maqoalning anchayin to'ldirilgan variant deyish mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqotda turkiy dunyo integratsiyasining 1992-2015 – yillar orasidagi jarayonlari kengroq tadqiq etib berilgan. Jumladan, maqolada postsovet integratsiyasi muammosiga taalluqli dolzarb masalalar, Turkiy respublikalar va Turkiya Respublikasi, shuningdek, hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida "turkiy omil"ning paydo bo'lishiga oid ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

SSSR parchalanganidan beri Anqara birlashish uchun katta sa'y-harakatlar ko'rsatib, turkiy davlatlar integratsiya jarayonida markaziy o'rinni egalladi deyish mumkin. O'zaro hamkorlikning turli shakllari: turkiy respublikalar rahbarlarining sammitlari, qurultoylar, parlamentlararo assambleyalari, Hamkorlik kengashi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitlari bosqichma-bosqich integratsiyaning asosi bo'lib keldi. Integratsiya rejalari rivojida Turkmaniston va O'zbekistonning befarq pozitsiyasi, Qozog'iston va Ozarbayjonning ko'p vektorli siyosati ham nisbatan ta'sirini ko'rsatdi. Turkiy respublikalar integratsiyalashuvi bo'yicha bosqichma-bosqich rejalarda kelajakda amalga oshishi mumkinligi xulosalangan. Maqola nashr etilganiga 7 yil bo'ldi va bu orada turkiy dunyoning yirik integratsiyasi amalga oshdi. Bu borada esa yuqorida ta'kidlab o'tildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan Turkiya o'rtasidagi ta'lim va madaniyat sohasidagi munosabatlar deyarli ular mustaqillikka erishgan 1991-yil ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan edi. 2014-yilga qadar bo'lgan davr hamkorliklari haqida Qirg'iz-rus slavyan universiteti qoshidagi Strategik tahlil va prognoz instituti kichik ilmiy xodimi R. Veyselning "Turkiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va ta'lim tizimiga ta'siri" (Вейцель, Р. 2014: 26-32) maqolasi ham ahamiyatli nashrlardan biri sanaladi. Tadqiqotchi o'z ishida Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan (Tojikiston bilan ham) siyosiy-iqtisodiy, ta'lim va madaniyatga oid munosabatlari, o'zaro kelishuvlari hamda Turkiy Kengash doirasidagi hamkorliklarini ko'rsatib o'tadi. Biroq XX asr 90-yillaridan maqola yozilgan davrda ham O'zbekistonning turkiy dunyo integratsiyasidagi faoliyati sust bo'lgani sabab ilmiy-madaniy hamkorliklar natijalari O'zbekiston taraqqiyotida aks etmagan. R. Veysel ilmiy ishida Markaziy Osiyo davlatlaridagi Turkiya bilan hamkorlikdagi ta'lim muassasalarini ham keltirib o'tadi. Ular quyidagilar:

1. Qirg'iziston – "Otaturk-Ala-Too" xalqaro universiteti, "Manas" qirg'iz-turk universiteti, 22 ta "Sebat" maktablari, "Ipak yo'li" xalqaro maktabi bor va Bishkekda Yunus Emre nomidagi turk madaniyat markazini tashkil etish bo'yicha kelishuv mavjud;
2. Qozog'iston – S. Demirel nomidagi universitet, Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti (jumladan, Turkiston shahrida turkiy dunyo sharafiga "Turkiy bog" tashkil etilgan), 28 ta qozoq-turk litseylari va Yunus Emre nomidagi turk madaniyat markazi mavjud;



3. Turkmaniston – xalqaro turkman-turk universiteti, hozirda (2014-yilga ko'ra) bor bo'lgan 1 ta M. Otaturk nomidagi turkman-turk maktabi va turk madaniyat markazi;

4. Tojikiston - 1 ta xalqaro tillar va kompyuter maktabi, 1 ta xalqaro maktab, 6 ta tojik-turk maktablari mavjud (Вейцель, Р. 2014: 26-32);

5. O'zbekiston – maqola muallifi hech qanday ma'lumot bermagan. Ammo 2014-yilda O'zbekistonda turk madaniyat markazi faoliyat olib borayotgan edi. 2018-yildan so'ng yangi hamkorliklar davrida "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Alfraganus universiteti va qator oliy ta'lim muassasalarining turk universitetlari bilan hamkorliklari yo'lga qo'yilgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan bo'lgan F. Yusupovning 2022-yilda "Academic research in modern science" xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida chop etilgan "Turkiy Davlatlar Tashkilotining rivojlanish tarixi va xalqaro huquqdagi o'rni" (Юсупова, Ф. 2022: 33-35) maqolasida Turkiy Davlatlar Tashkilotining tarixi, shakllanishi, maqsad-vazifalari va ularning BMT bilan olib borayotgan hamkorligi haqida muhokama qilingan.

Anqara universiteti tadqiqotchisi Ahmet Akalinning 2022-yilda nashr etilgan "Türk Devletleri Teşkilati "Ali Şir Nevai uluslararası ödülü" (Akalın, A. 2022: 363-366) maqolasi ham tashkilot doirasida ilmiy-madaniy hamkorlik masalalariga doir ahamiyatli voqeylik haqidadir. Tashkilot doirasida yuksak xizmatlari, o'z faoliyati bilan barcha jabhada o'rnak bo'layotgan olimlar, ijodkorlar "Alisher Navoiy xalqaro mukofoti" bilan taqdirlanishi mumkin. Samarqand sammitida ilk bora ushbu mukofot o'z egasini topdi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ilk sohibi – turkiy dunyo birligiga qo'shgan hissasi uchun buyuk adib va jamoat arbobi, ulug' gumanist Chingiz Aytmatov bo'ldi (uzreport.news. 2022, noyabr 11).

Yana bir kichik ammo o'ziga xos tadqiqot ishlaridan M. Mustofayevning "Turkiy davlatlar tashkiloti: yangi global yondashuvlar va mintaqaviy muammolar" (Mustofaev, M. 2022: 105-121) nomli maqolasini aytish mumkin. Ushbu maqolada asosiy e'tibor 2021-yilda bo'lib o'tgan Tashkilotning tarixiy sammitiga, faoliyat doirasidagi muhim o'zgarishlar va qarorlar ijrosiga qaratiladi. Bundan tashqari muallif, Turkiy davlatlar hamkorligining ayni damdagi holati va kelajakdagi rivojlanish ehtimolini baholash orqali xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning kelajagi haqida bir qator prognozlar ham qiladi. Maqolada boshqa ilmiy tadqiqotlarda kam kuzatiladigan holat, Samuel Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartiboti" (Hantington, S.F. 2023) nomli kitobidan kelib chiqib Turkiy davlatlar tashkilotiga sivilizatsiyaviy yondashuv amalga oshirilgan. "Turkiy dunyo nigohi – 2040" dasturining ahamiyati, bojxona ishlarini soddalashtirish va ilmiy-madaniy sohalarning iqtisodiy yaqinlikda hal etish masalalari ham asosiy o'ringa chiqqan. Va nihoyat, maqola tobora globallashib borayotgan dunyoda tashkilotning kelajakdagi rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan.



Sohaga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor ekspertlarning tahlillariga qaratilishi doimo ahamiyatlidir. Jumladan, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi eksperti A. Mirkomilovning "Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikning yangi imkoniyatlari" (Mirkomilov, A. 2022, noyabr 11) nomli maqolasi ham ayni Samarqand sammiti natijalarining turkiy dunyo taraqqiyotida ulkan yutuq bo'lishiga ishonch sifatida yozilgan. Maqolaning asosiy mazmuni sifatida madaniy-gumanitar sohada aloqalarni mustahkamlash Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligining asosiy vazifalaridan ekanligi ta'kidlanadi. Fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, yoshlar, sport va turizm sohasida o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish esa azaldan mavjud bo'lgan hamkorliklarni yanada hamjihatlik bilan boyitishga turtki ekanligi ham bayon qilinadi. Turkiy xalqlarning boy tarixiy-madaniy merosini ommalashtirish va targ'ib qilishda OAV o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kengaytirish ham shu qatorda bosh maqsadligiga ishora qilingan. Shu qatorda 2022-yil 29-iyul kuni O'zbekiston Prezidenti tomonidan "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (lex.uz. 2022, iyul 29) qarorning imzolanishi zamonaviy dunyoda turizm eng katta birlashtiruvchi kuchga aylanayotganini va bundan samarali foydalanish zarurligi xususida qilingan eng muhim xulosadir. Ushbu qaror bilan Turkiy dunyo doirasida "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasi tasdiqlandi. Maqolada yana madaniy-gumanitar almashinuvlarning o'sib borayotganligi, bo'lib o'tadigan sammit yakunlarida ham umumiy sohalaridagi o'nlab hujjatlar imzolanishi ham kun tartibida ekanligiga ishora qilib o'tiladi. Yakunda haqiqatdan ham o'ndan ortiq tashkilotning taraqqiyotini belgilovchi, kelajak uchun xizmat qiluvchi qarorlar imzolandi va bugungi kunda ularni amalga tadbiq etish jarayonlari ham boshlanib ketgan.

O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lgach, Prezident tomonidan o'tgan qisqa davrda o'ttizdan ortiq savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy, transport, turizm, sog'liqni saqlash, madaniy-gumanitar, iqlim o'zgarishi va ekologiya sohalarida hamkorlikni kengaytirish borasida muhim tashabbus va takliflarning ilgari surilishi ham O'zbekiston bu tashkilotga bejiz qo'shilmaganligi, yuksak ambitsiyalarga egaligini ko'rsatmoqda. Tashabbuslarning aksariyati bugungi kunda amaliy ifodasini topganini ta'kidlash lozim.

Shu o'rinda yana bir muhim nashrni eslab o'tish muhimdir. Bu "Turkiy Kengash: Naxichevan kelishuviga 10 yil" (Shahverdiyev, C., Dr. Veliyev, C. 2019) nomli maxsus yubiley uchun chop etilgan kitob bo'lib. U 2019-yilda Bokuda bosmadan chiqqan. Bu maxsus to'plam Turkiy kengash kotibiyati va Xalqaro tahlil markazi o'rtasida tayyorlangan. Ushbu nashr o'z ichiga Turkiy kengashga a'zo davlatlar rahbarlarining qutlov maqolalari, Vengriya Bosh vazirining murojaati, Turkiy Kengashga a'zo davlatlarning tashkilotlari va rasmiy tahlil markazlari rahbarlarining maqolalarini o'zida jamlaydi. Shu jumladan, maxsus yubiley to'plamidan O'zbekiston Prezidentining "Integratsiya va hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar" (Mirziyoev, Sh. 2019: 20-24) nomli maqolasi ham o'rin olgan.



NATIJALAR.

Turkiy Davlatlar Tashkilotining ayni damdagi a'zolari – O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Qozog'iston, shuningdek, kuzatuvchi maqomidagi davlatlar – Vengriya, Turkmaniston hamda Shimoliy Kipr Respublikasidir. Katta ehtimol bilan Tojikiston ham turkiy dunyoga Markaziy Osiyoning muhim va ajralmas bo'lagi sifatida integratsiya qilish maqsadida rasmiy sammitlarda ishtirok etishi mumkin. Biroq bu hali vaqt masalasi bo'lib, unga aniqroq kelgusi sammitlar doirasida guvoh bo'lish mumkin bo'ladi.

Bu tarzda birlashish Kavkaz va Markaziy Osiyo hududida yangi rivojlanayotgan transport hamda energetika yo'laklari tarmog'i bo'ylab ishonchli xavfsizlik va hamkorlik bog'lamlarini ta'minlash uchun muhimdir. Bu nafaqat a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtasida savdo aloqalarini kengaytirish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi, balki tashkilotning iqtisodiy mustaqilligi, siyosiy faolligi va farovonligiga erishish bilan birga, bu yo'ldagi bir qator global xurujlar, jumladan, Afg'oniston hududidan (terrorizm, noqonuniy migratsiya, narkotrafik) tahdidlarga qarshi turish omili hamdir (uzanalytics.com. 2022, dekabr 13).

Tashkilotga a'zo mamlakatlarning haddan ziyod geosiyosiy ambitsiyalar va yaratilayotgan transmilliy loyihalar faoliyatida ishtirok etayotgan boshqa bir xalqaro kuchlar bosimiga qarshi turishida ko'mak berish ehtimoli yuqori.

XXI asrning murakkab global sharoitida saqlab qolish va yanada rivojlanish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Zero, global madaniyatning salbiy asoratlari tarqalishi va qadriyatlar yemirilishi jarayoni kechayotgan bir davrda tashkilotga a'zo davlatlar xalqlarining madaniy o'ziga xos jihatlarini saqlab qolish juda muhim va bunda o'zaro diniy hamda qardoshlik elementlari yuqori rol o'ynaydi.

XULOSA.

Umuman olganda, mintaqaviy jarayonlarda ishtirok etayotgan tashkilotga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlarda mintaqaviy xavfsizlik hamda iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi mavjud bo'lgani holda chegaraviy bog'liqlikning ham ahamiyati ulkandir. Qolaversa, Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a'zo Markaziy Osiyo mamlakatlari bir vaqtning o'zida YEOII, KXSHT va SHHTga ham a'zolihi hisobga olinsa, barcha tomonlar munozarali masalalarni qiyinchilik bilan bo'lsa-da, hal etish imkoniyatiga egaligi taxminiy vaziyat masalasidir.

Xulosalab aytish o'rinliki, Turkiy Davlatlar Tashkiloti qardosh xalqlarning umumiy farovonligi va ravnaqiga xizmat qilishidan bugungi turkiy dunyoning katta qismi umidvordir. O'zaro hamkorlik samaradorligini oshirish va qator ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ko'p tomonlama sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilinayotgan, savdo, iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, transport va kommunikatsiyalar, gumanitar, ilmiy-madaniy almashinuv borasidagi aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida jonli uchrashuv hamda muloqotlar tashkil etilganligi yaqin kelajakda ijobiy natijasini berishi shubhasizdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

Юсупов Саид-Абдулазиз. *Замонавий Туркия: кўхна тарих ва буюк келажак*. Тошкент: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.

Мирзиёев Ш.М. *Нияти улуғ ҳалқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади*. 3-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2019. Б. 192-202.

Мирзиёев Ш.М. *Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари*. 4-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2020. Б. 258-263.

Ражабов Қ., Қандов Б. *Жаҳон мамлакатлари ва халқаро ташкилотлар*. Тошкент: Yangi nashr, 2015.

Мирзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. Тошкент: O'zbekiston, 2021.

Resep Tayyip Erdoğan. *Daha adil bir dünya mümkün. Birleşmiş Milletler reformu için bir model önerisi*. Turkuvaz Haberleşme ve Yayıncılık A.Ş. 2021.

Режеп Таййип Эрдоған. *Дунё янада одил бўлиши мумкин*. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ислоҳи учун таклиф. (Тарж., М.Юлдошев, А.Тилавов) Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.

Парубочая Е.Ф. *Саммиты тюркских государств (1992–2001 гг.): реальная платформа для сближения?* Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 4, Ист. 2011. № 1 (19), С. 113-120. <https://cyberleninka.ru/article/n/sammity-tyurkskih-gosudarstv-1992-2001-gg-realnaya-platforma-dlya-sblizheniya>

Парубочая Е.Ф. *Интеграция тюркского мира на современном этапе*. Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 6. Ч. 1. С. 147-151. <https://www.gramota.net/materials/3/2016/6-1/35.html>

Вейцель Р. *Влияние Турции на культуру и образование стран Центральной Азии*. Ислам в современном мире. 2014; (1(33)):26-32.

Юсупова Ф. *Туркий Давлатлар Ташкилотининг ривожланиш тарихи ва халқаро ҳуқуқдаги ўрни*. Academic research in modern science international scientific-online conference. 2022. Б. 33-35.

Akalin Ahmet. "Türk Devletleri Teşkilati "Ali Şir Nevai uluslararası ödülü". The Materials of the International Scientific-Theoretical Conference on the Theme «Alisher Navoi and the XXI century». Tashkent, 2022. P. 363-366.

Chingiz Aytmatov *Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotining ilk sohibi bo'ldi*. 11.11.2022. <https://uzreport.news/politics/chingiz-aytmatov-alisher-navoiy-nomidagi-xalqaro-mukofotining-ilk-sohibi-boldi>

"The Organization of Turkic States: A New Approach to Global and Regional Challenges". *Perceptions journal of international affairs*. SAM, Türkiye. Spring-Summer 2022 Volume XXVII Number 1. P. 105-121.

Hantington S.F. *Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartiboti*. Tarj. J.Qodirov. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.



Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikning yangi imkoniyatlari. 09.11.2022. <https://oyina.uz/uz/article/1222>

Туркий давлатлар билан туризм соҳасидаги ҳамкорликни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 29.07.2022 йилдаги ПҚ-338-сон. <https://lex.uz/uz/docs/6137065>

Şahverdiyev Ceyhun, Dr. Veliyev Cavid. Turkic Council 10th anniversary of the Nakhchivan agreement. Baku – 2019. <https://www.turkicstates.org/assets/pdf/yayinlar/ozel-yayin-turk-konseyi-nahcivan-anlasmasin-10-yil-donumu-11-en.pdf>

Mirziyoev Sh.M. New opportunities for integration and cooperation. Baku – 2019. P. 20-24. <https://www.turkicstates.org/assets/pdf/yayinlar/ozel-yayin-turk-konseyi-nahcivan-anlasmasin-10-yil-donumu-11-en.pdf>

Туркий давлатлар ташкilotи: Янги тузилманинг турк дунёсига таъсири. 13.12.2022. <https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/9834/>

EXTENDED ABSTRACT

STUDY OF THE HISTORY AND PROSPECTS IN LOCAL AND FOREIGN STUDIES OF THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES UNDER GLOBALIZATION

This article was formed and developed during the first quarter of the 21st century, and the development of the Organization of Turkic States, which is becoming an increasingly large international organization, the results of the inter-summit meetings of the heads of state, and the issues of cooperation in scientific and cultural circles, was formed based on the works of researchers who are conducting scientific work in this field.

A detailed study of the works of local and foreign researchers, comparison, comparative and analytical approaches is important as one of today's topical issues in establishing the history and future prospects of the Organization of Turkic States in the context of globalization.

Despite the change to the name of the Organization of Turkic States and the fact that the first summit will be held in 2022, the ties are strongly tied today due to the unity of the roots. Since the 90s of the 20th century, many steps have been taken in the name of Turkish unity. As a result, on the political and international level, the organization of Turkic states was formed under the union, and this is the most appropriate name that the organization can get.

From the socio-economic, political, scientific, cultural and military point of view, work has been started to raise the cooperation between the member and observer states of the Organization to a higher level.

In the future, the organization should be strengthened and the cases where there is a structure and agreements similar to the European Union should come to the fore.



Historically the Turkic Council was created as a forum in 1991 as a result of the disintegration of the former Soviet Union through the process of meetings of "Leaders of Turkic-speaking countries". Summits were held several times.

Before this organization was founded, in 1992, the "United Turkic Language and Art Administration" was founded in Almaty, the capital of Kazakhstan at that time, and the "Parliamentary Assembly of Turkic-speaking countries" was established in Baku, Azerbaijan.

In 2009, Turkey, Azerbaijan, Kazakhstan and Kyrgyzstan signed the Nakhichevan Agreement, which established the Turkic Council, in Nakhichevan.

The 2021 Istanbul Summit went down in history as the last meeting of the Cooperation Council of Turkic-Speaking Countries and the official formation of the Organization of Turkic States.